

KORREKTSION PEDAGOGIKA

Xusniddinova Ra'no

Yakubova Diloromxon

Ummatova Nilufar

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

ANNOTATSIYA

Pedagogikaning eng rivojlanib borayotgan sohalaridan biri bu "Korreksion pedagogikadir". Korreksion pedagogikada biz asosan nutqida ko'rishida, eshitishida va aqlan zaif bo'lgan bolalar bilan ishlash nazarda tutiladi: Bugungi kunda Korreksion pedagogika nuqsonida kamchiligi bor bolalar bilan ishlanmoqda va yanada o'z samaradorligini orttirib bormoqda. Ushbu maqolada rivojlanishida turli kamchiliklari bo'lgan bolalarning nuqsonlarini tuzatish uchun ishlash mexanizmlarini yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Korreksion pedagogika, anomal bola, inklyuziv va deffirensial ta'lim, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofreniya, logopediya.

Аннотация

Одним из наиболее развивающихся направлений педагогики является «Коррекционная педагогика». В коррекционной педагогике мы в основном работаем с детьми, имеющими нарушения зрения, слуха и умственного развития: Сегодня коррекционная педагогика работает с детьми с ограниченными возможностями здоровья и повышает свою эффективность. В данной статье описаны рабочие механизмы коррекции дефектов у детей с различными отклонениями в развитии.

Ключевые слова: Коррекционная педагогика, аномальный ребенок, инклюзивное и дифференцированное образование, педагогика глухих, тифлопедагогика, олигофрения, логопед.

Abstract

One of the most developing areas of pedagogy is "Correctional pedagogy". In correctional pedagogy, we mainly work with children who are visually, hearing, and mentally impaired: Today, correctional pedagogy is working with children with disabilities and is increasing its effectiveness. This article describes the working mechanisms for correcting the defects of children with various developmental disabilities .

VOLUME-2, ISSUE-3

Key words: Correctional pedagogy, anomalous child, inclusive and differential education, deaf pedagogy, typhlopedagogy, oligophrenia, speech therapy.

Barchamizga ma'lumki bugungi kunda Korreksion pedagogika keng ko'lamda rivojlanib bormoqda. Korreksion pedagogika so'zi- lotinchadan olingen bo'lib tuzatish bartaraf etish va ta'lim tarbiya o'rganish so'zlaridan olingen. Ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar anomal bolalar deyiladi (yunoncha odatdan tashqari, noraso degan ma'noni bildiruvchi anomalos suzidan olingen). Korreksion pedagogika fanining mavzu bahsi anomal, alovida yordamga muxtoj bolalar hisoblanadi. Korreksion pedagogikada rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar ishlashda bir necha fanlar ajralib chiqadi. Bunga misol qilib ayta olishimiz mumkin Surdopedagogika, Tiflopedagogika, Oligofreniya kabilarni misol keltirishimiz mumkin.

Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan.[1]

Surdopedagogika eshitishda nuqsoni bor bo'lgan bolalarni maxsus pedagogikaning sohasi Surdopedagogika o'rganadi. Eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablari ikkiga bo'linadi tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin. Kar saqov bolalarning 20-30 foizi tug'ma bo'ladi. Bunga sabab: onananing xomladorlik vaqtida qattiq gripp bo'lishi, ota onalaring ichkiliklar ichib turishi, onaning turli xil kasaliklarga chalinishi, xomiladorlik vaqtida bilinar bilinmas dorilar istemol qilishi xomilaning shikastlanishiga olib keladi va bu irlisyat genetik faktorlaga kiradi. Eshitishda orttirilgan nuqsonlar bo'lsa quloq yoki eshitish analizatorlarining tuzilishidagi kamchiliklari misol bo'lishi mumkin. Bolaning ilk yoshligida turli xil kasalliklarga chalinishi qizilcha, qizamiq, meningoensefalit, meningit, gripp kabi kasaliklari bilan kasallanishi ba'zi holatlarda kar soqovlikni yokida boshqa nuqsonlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Tiflopedagogika yunonchadan olingen bo'lib ko'r so'qir degan ma'noni anglatadi. Bu fan ko'rish qobiliyati zaif bo'lgan bolalar bilan ta'lim-tarbiya berishfa shug'llanadi. Ko'rishga aloqador nuqsoni bor bolalar uchun birichi bo'lib Parijda maxsus muassasa ochilgan. Bunday nuqsonli bolalarning kelib chiqishi ham ikki xil tug'ma va orttirilgan bo'ladi.

Bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishni, umumiyl o'rta ma'lumotga ega bo'lishlarini, hayot va mehnatga tayyorlashni maqsad qilib qo'yadi. Teflopedagogika ko'r va zaif ko'rvuchi bolalar uchun ta'limni takomillashtirish yo'llarini, o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish metodlarini, maxsus maktab hamda maktabgacha

VOLUME-2, ISSUE-3

muassasalar tuzilmasini, ularning ta'limtarbiyasining tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi. Teflopedagogika ning eng muhim vazifasi bolalarda saqlanib qolgan ko'rish imkoniyatlaridan o'qish jarayonida to'g'ri foydalanish va uni rivojlantirish, ko'rish imkoniyatlarini saqlash uchun sharoit vujudga keltirish, ta'limning texnika vositalarini qo'llashdan iborat.[2]

Oligofreniya yunonchadan olib bo'lib aqli zaif bolalar bilan ishlash degan ma'noni anglatadi. Oligofreniya tug'ma yoki uch yoshgacha bo'lган davrda orttirilgan ruhiy rivojlanmay qolish bilan kechadigan kasalliklar guruhi hisoblanadi.

Oligofreniya kelib chiqish sabablari xilma xil bularga gnetik irsiy omillar, xromosomalarning buzilishi, ota ona kasalliklari, ayniqsa, onasining xomladorlik vaqtidagi turli xil kasalliklarga chalinishi bolaning tug'ilishiga qadar kechadigan kasalliklar yoki tug'ilganidan keyin 3 yoshgacha kechadigan turli xil jarayonlar bolaning aqlini zaiflashtirib quyishiga sababchi bo'lib qoladi. Bunaqa vaziyatlarda ota ona ham o'z sog'liqlariga e'tibor berishlari shuningdek farzandlari tug'ilgandan keyin ham unga yaxshi qarashlari shart. Agarda bolada Olligofreniya asoratlari kuzatilsa bolada hamma kabi aqli ravon ishlamaydi. Oligofreniyaning asosiy belgisi ruhiy faoliyatning hamma tomonlama yetishmasligi, shaxsning bilim va ko'nikmalarining yetuk emasligi, tafakkuri, fikrlash qobiliyatining chegaralanganligi yoki umuman yo'qligi ham kirishi mumkin. Shaxsiy rivojiana va kamol topa borgani sari uning fikrashi abstraktlasha boshlaydi, ya'ni aniq narsalar va belgilarga qarab tafakkuri boyiydi. Bunaqa bolalarda matematikada qo'shish ayrish amallarini yoki ko'paytirish bo'lish amallarini shuning ko'paytirish jadvalini ham boshqalar kabi aytolmaydi yoki umuman bularni bajara ololmaydi deb misol keltirishimiz mumkin. Eng avvalo bunaqa kamchiliklari bo'lishining oldini olishimiz kerak lekin afsuski bunaqa holatlar kuzatilib turmoqda[3]. Shunday bo'lsada ruhiy kamchiligi bor bolalar bilan ishlab ularning kamchiliklarnini yopishga ularni nuqsonlarini yo'qotishga harakat qilinib kelinmoqda. Ba'zilarda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda inson psixologiyani o'rganish va unga ta'sir qilish yo'llari orqali o'gatilmoqda desak xato bo'lmaydi[4].

Defektalogiya nutqida kamchiligi bor bo'lган bolalar bilan ishlaydi. Nutqida kamchiligi bor bolalarda: Eshitish va nutq bir biri bilan chambarchas bog'liqidir, chunki bola nutqi rivojlanishi uchun uning eshitish organlarining qobiliyatları normal bo'lishi kerak, ya'ni u eshitgan so'zlarini takrorlaydi va nutqi rivojlanadi. Bunaqa jarayon ham ikki xil bo'ladi tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Kimdir tug'ilganidan boshlab gapira olmaydi yana kimdir esa tug'ilganidan keyin ma'lum muddatdan keyin gapira olmasligi mumkin bunga sabab nimdandir kuchli qo'rishi yoki kuchli hayajonlanishi orqali ham kuzatilishi ham mumkin[5].

VOLUME-2, ISSUE-3

Hozirgi kunda nutqida, eshitishida, ko'rishida shuningdek aqlida rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar o'z tengdoshlari bilan bitta maktabda o'qib birga ta'lim olishiga, ular qatori o'zlashtirib keta olishiga biz bunaqa ta'limni Inklyuziv ta'lim deymiz. Ayrim joylarda bunaqa holatlar kuzatilib turadi. Bunga misol qilib qilib ayta olishimiz mumkin: Masalan nutqida kamchiligi bor gapirishga qiynaladi, gapirganda tutilib gapiradi yoki bo'lmasa eshitishidas nuqsoni bor bolalar sekinroq eshita oladi o'z tengdoshlari bilan o'qishni olib keta oladigan darajada. Ko'rishida kamchiligi bor bolalar ham misol bo'ladi. Bugungi kunda tibbiyotimizda keng ko'lamda rivojlanib borayotganligi uchun bunaqa kamchiligi bor bolalarga o'z tengdoshlari bilan bilan birqalikda o'qish va o'zlashtirib ketishini osonlashtirib bermoqda.

Xulosa qilib aytamanki shuni ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni va kamchiligi bor bolalar bilan maxsimum darajada ishlashga harakat qilinmoqda. Bunaqa bolalar bilan Pedagogik psixalogik jarayonlar olib borilib ularga kerakli yordamlarni berib bormoqdamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.<https://mentalaba.uz/direction/maxsus-pedagogika-tiflopedagogika-127> [1]

2.<https://fayllar.org/korreksion-pedagogika-asoslari-v4.html> [2]

3. Abdullayeva SH.A., Ro'ziyeva D.I. "PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKTSIYA"

4.V.C.Raxmonova "Maxsus pedagogika" Toshkent 2004

5.P.M.Po'latova "Oligofrenopedagogika" Toshkent 2005